JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI MUTAXASSISLARI KASBIY FAOLIYATIDA IJODIY *YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH*

Bektemirov Sardorbek Rustambek o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: bektemirovsardorbek@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy faoliyatida ijodiy yondashuvni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda sport ta’limi jarayonida pedagoglarning yangicha fikrlashi, muammolarga noan’anaviy yechim topa olishi, shuningdek, innovatsion metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilar va sportchilar bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot davomida ijodiy yondashuvni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar, shaxsiy va kasbiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda amaliy tavsiyalar ko‘rib chiqilgan. Mazkur material jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, murabbiylar, trenerlar va sport sohasidagi boshqa mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar:Jismoniy tarbiya, sport, kasbiy faoliyat, ijodiy yondashuv, pedagogik innovatsiyalar, trenerlik faoliyati, shaxsiy rivojlanish, ijodkorlik, sport ta’limi, metodik yondashuvlar, motivatsiya, sport pedagogikasi, kasbiy kompetensiya.

Kirish. Bugungi kunda jahonda mutaxassislarning kasbiy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ularning malakalarini oshirish, kasbiy tajribalarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e’tibor yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga, iqtisodiy taraqqiyotga erishishga qaratilmoqda. Insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning begonalashuviga, uzoqlashishga sabab bo‘luvchi jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarning salmog‘i esa kamayib bormoqda. Natijada jamiyat barqarorligini ta’minlash yo‘lida barcha vositalardan foydalanish, ayniqsa yoshlarning ma’naviy va jismoniy salomatligini ta’minlash bo‘yicha tadqiqotlarni tashkil qilish zaruriyatga aylanmoqda. Bu esa mutaxassislarni tayyorlashda va ularning kasbiy salohiyatini oshirishda bir tomonlama yondashuv vujudga kelganligini ko‘rsatadi. Bizga ma’lumki “Jismoniy madaniyatni jamiyat a’zosi bo‘lgan insonning jismoniy qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida qarash – yuzaki qarash bo‘lib qoladi. Jismoniy tarbiyaning ixtisoslashgan vazifasi – nafaqat shaxsning shakllanishiga ta’sir o‘tkazish, balki uning ko‘pgina jihatlaridan biri bo‘lgan jismoniy madaniyatiga, yoshlarning salbiy xulq-atvoridan ogohlantirish ham kiradi. Shuning uchun ham, “jismoniy rivojlanish”, “jismoniy tarbiya” va “jismoniy madaniy tarbiya”

tushunchalarini o‘zaro aralashtirish kerak emas. Birinchi tushuncha ob’ektiv jarayon bo‘lib, odam organizmida ro‘y beradi. Ikkinchisi – bu jarayonga odamning faol ta’siri bo‘lsa, uchinchisi esa insonlarning jismoniy madaniyat qadriyatlariga nisbatan munosabatlarini shakllantirishni anglatadi. Shunday qilib, jismoniy madaniy tarbiya va uning tarkibiy qismlari – bu bosqichma bosqich pedagogik jarayondir. U maqsadli tarzda insonning doimiy o‘zgarib turuvchi jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga, kamolotiga moslashib boradi. Uning asosiy vazifasi shundan iboratki, odamning tabiat tomonidan in’om etilgan jismoniy tana imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlash va rivojlantirishdan iborat. Jismoniy madaniyatning zamonaviy nazariyasida jismoniy madaniyat hodisasini talqin qilishda falsafiy-madaniy yondashuvdan foydalanish amaliyoti va uning har bir shaxs tomonidan shakllantirish mexanizmlari juda aniq rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ham, insonning “jismoniy” tarbiyasi emas, “jismoniy madaniy” tarbiyasi kun tartibiga qo‘yiladi. Agar “jismoniy” so‘zida odatda urg‘u harakat tayanch tizimi tushunilsa, “jismoniy madaniy” atamasi esa madaniyat orqali tarbiyalashni nazarda tutadi. Bu esa jismoniy madaniyatga xos qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali kechadi. Shunday qilib, biologik va sotsial tushunchalarining o‘zaro munosabati bu falsafiy omillarning uyg‘unligi va bir biriga bog‘liqligi g‘oyasini ifoda etadi. Inson jismoniy madaniyat qadriyatlarini o‘zlashtirishi orqali jismoniy jihatdan mukammal bo‘lgan shaxs bo‘lib shakllanib boradi. Bu esa mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda qadriyatli yondashuvning ahamiyati ko‘rsatib beradi hamda mazkur yo‘nalishda tadqiqotlarni tizimli tashkil qilish kerakligini ko‘rsatadi. Xususan, sohadagi mutaxassislar malakasini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, ularni ilmiy-ijodiy fikrlashga yo‘naltirish sohada malakali mutaxassislar avlodining shakllanishiga olib keladi. Chunki, jismoniy tarbiya va sport bugungi kunda tezda rivojlanayotgan hamda turli sohalarning kirib kelishi kuchaytgan sohalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, dunyoning integratsiyalashuvi ortib borishi, turli yuqumli kasalliklarnng paydo bo‘lishi aholining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan moyilligi va qiziqishini oshirib bormoqda. Albatta, buning ortida turli sohalar jismony tarbiya va sportdan doromad olish ilinjida o‘z kuchlarini yo‘naltirib, daromad olish hamda ta’sir ko‘rsatishga harakat qilmoqda. Mazkur jarayon jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning tayyorgarligini zamonaviy mezonlar doirasida oshirishga, har bir jarayonga ilmiy yondashish oqali qaror qabul qilishga yo‘naltirmoqda. Chunki, sohaga bo‘lgan talabning ortishi boshqa sohalarning kirib kelishiga olib kelish ortidan innovatsion texnologiyalarni kirib kelishini ham kuchaytirmoqda. Bunday holatlarni vujudga kelishida jismoniy tarbiya va sportning inson salomatligini ta’minlashdagi ahamiyatining katta ekanligini ko‘rsatadi. Sog‘lom turmush tarziga nisbatan qadriyatli munosabatni

shakllantiradi. Hozirgi sharoitda salomatlikning boshqa qadriyatlarga nisbatan o‘rni va ahamiyatining ortib borshi esa salomatlikka oqilona munosabatni shakllantirish zarur ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga nisbatan qadriyatli yondashuvni shakllantirish jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish orqali salomatlikni ta’minlash kerak degan dunyoqarashni shakllantiradi. Shuningdek, faol harakatlanishga yetaklaydi va inson tafakkurida sog‘lom turmush tarziga qadriyat sifatida kundalik amalga oshiradigan vaziflaridan biri sifatida munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Bu esa sog‘lom turmush tarzidan kelib chiqib, boshqa munosabatlarga baho berishga hamda bajaradigan ishlarining tartibiniga belgilashga odatlantirib, qadriyatli yondashuvni yuzaga keltiradi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlarini rivojlantirish nafaqt insonlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, sportcha turmush tarziga odatlatiradi. Ya’ni, bu “sport turmush tarzi sub’ektiv tajriba asosida amalga oshiriladi, bu odamga o‘z imkoniyatlari, o‘z harakatlarini tashkil qilish qoidalari, o‘zi uchun muhim bo‘lgan qadriyatlar, imtiyozlar va ehtiyojlar ierarxiyasini hisobga olishga imkon berib”, inson o‘z imkoniyatlari darajasida harakat qilishga undaydi hamda ma’lum bir ishni amalga oshirishdan avval o‘zining jismoniy imkoniyatlarini hisobga olishga o‘rgatadi. Shaxsning o‘ziga bo‘lgan bunday yondashuvi o‘z ustida ishlash, avval kamchiliklarini bartaraf etish hamda o‘z qulidan keladigan ishlarni amalga oshirishga harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga ongli ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug‘ullanishga, jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qadriyatli yondashuvining shakllanib borishiga yordam beradi.

Xulosa. Bugun barcha sohalarda bo‘lgani kabi jismoniy tarbiya va sport sohasida ham zamonaviy talablar hamda yangicha ishlash uslubiga ega mutaxassislarga ehtiyoj oshib bormoqda. Bunda xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trenero‘qituvchilar, mutaxassislarni tayyorlash ishlari soha oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Hozirda dunyo olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning muhim jihati shundaki, sport mutaxassislarini tayyorlash hamda aholi orasida ommaviy sportni rivojlantirishda turli sohalar hamkorligiga e’tibor qaratilmoqda. Natijada, bir tomondan iqtisodiy yuksalish ortmoqda, ikkinchi tarafdan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari dunyoqarashida moddiy manfaatdorlikning asosiy motivga aylanishi, jismoniy kuchni dominant sifatida bilish kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport

mutaxassislarining tafakkur tarzini kompleks rivojlantirish bilan bog‘liq tadqiqotlarni tashkil qilishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I.A. (2016). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
2. Turaev, M. (2020). *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti.
3. Jo‘rayev, A. (2019). “Sport pedagogikasida innovatsion yondashuvlar”. *Sport va pedagogika ilmiy-amaliy jurnali*, №3, 22–26-bet.
4. Qodirov, B. (2018). *Kasbiy ta’limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.